2

Bob

MAKTAB INFRATUZILMASI VA MODDIY-TEXNIK BAZASI

2.1. Maktab infratuzilmasi va sinf xonalarining ta’lim muhitidagi o‘rni

2.2. Moddiy-texnik bazani jihozlashga qo‘yiladigan talablar

2.3. Raqamli ta’lim muhitini joriy etish uchun zarur moddiy-texnik sharoitlar

2.4. Jihozlar va ta’lim vositalaridan samarali foydalanishni tashkil etish

2.5. Maktab hududi, foye va bino yo‘laklarini zamonaviy bezatish

2.6. “Zamonaviy maktab” talablari asosida ichki baholashni amalga oshirish

2.1. MAKTAB INFRATUZILMASI VA SINF XONALARINING TA’LIM MUHITIDAGI O‘RNI

Maktab infratuzilmasi ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning moddiy va tashkiliy asosini belgilaydi. U maktab binosi va hududi, kirish-chiqish joylari, sinf xonalari, fan kabinetlari, laboratoriyalar, kutubxona, sport inshootlari, rekreatsiya hududlari, axborot stendlari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, o‘quv jihozlari hamda boshqa ta’lim vositalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu infratuzilma obyektlari ta’lim sifati, o‘quvchilar xavfsizligi va pedagoglar faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydigan yagona tizim sifatida boshqarilgandagina o‘zining amaliy ahamiyatini namoyon etadi.

Direktor maktab infratuzilmasini faqat moddiy boyliklar majmui sifatida emas, balki ta’lim sifati va boshqaruv samaradorligini ta’minlaydigan muhim resurs sifatida baholashi lozim. Har bir sinf xonasi, o‘quv kabineti va ta’lim vositasi belgilangan maqsadga muvofiq, samarali va xavfsiz foydalanilgandagina kutilgan natijaga xizmat qiladi. Shuning uchun infratuzilmani boshqarishda uning mavjudligi emas, balki undan foydalanish samaradorligi asosiy mezon hisoblanadi.

Maktab infratuzilmasini baholashda direktor quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratishi tavsiya etiladi:

- mavjud infratuzilma va jihozlar ta’lim jarayoni ehtiyojlariga qay darajada xizmat qilayotgani;
- sinf xonalari, fan kabinetlari va boshqa obyektlardan foydalanish tartibi hamda mas’uliyatning aniq belgilanganligi;
- o‘quvchilar, pedagoglar va boshqa xodimlar uchun xavfsiz, qulay va funksional sharoitlarning yaratilganligi;
- moddiy-texnik resurslarning maktab ehtiyojlari va ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq taqsimlanganligi;
- aniqlangan muammolarni maktabning ichki imkoniyatlari hisobidan bartaraf etish yoki yuqori turuvchi tashkilotlar va hamkorlar ko‘magini talab etishi.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 29-yanvarda 3765-raqamli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Maktabgacha, umumiy o‘rta va qo‘shimcha ta’lim tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlash talablari to‘g‘risidagi nizom”.

Mazkur Nizomning 6-bandiga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari 2017-yil 16-oktyabrda 2935-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun zarur bo‘ladigan jihozlar me’yorlari”ga muvofiq jihozlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi PQ-4537-son Qaroriga muvofiq, davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash “Zamonaviy maktab”larning namunaviy loyihalari va me’yorlari asosida amalga oshiriladi.

Maktab infratuzilmasini baholashda bino, sinf xonalari va jihozlarning mavjudligi bilan bir qatorda, ularning ta’lim jarayoniga xizmat qilish darajasi ham inobatga olinadi. Direktor infratuzilma elementlarini tahlil qilishda quyidagi savollarga e’tibor qaratishi maqsadga muvofiq:

1. Maktab binosi, hududi, sinf xonalari va boshqa obyektlar ta’lim jarayonini tashkil etishga qay darajada xizmat qilmoqda?
2. Qaysi infratuzilma elementlari to‘liq va samarali foydalanilmoqda, qaysi obyektlardan foydalanish imkoniyati yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan?
3. Sinf xonalari, laboratoriyalar, kutubxona, sport zali, foye va yo‘laklarda xavfsizlik, qulaylik va foydalanish tartibi yetarli darajada ta’minlanganmi?
4. Har bir infratuzilma elementi bo‘yicha mas’ul shaxs, foydalanish tartibi va texnik holatini nazorat qilish mexanizmi belgilanganmi?
5. Aniqlangan muammolarning qaysilari maktabning ichki imkoniyatlari bilan hal etilishi mumkin, qaysilari qo‘shimcha resurs yoki yuqori turuvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni talab qiladi?
6. Mavjud infratuzilma o‘quvchilar, pedagoglar, ota-onalar va alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratishga xizmat qilmoqdami?

1. .....

2. .....

3. .....

4. .....

5. .....

6. .....

4-jadval. Maktab infratuzilmasi elementlari va direktor e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan jihatlar

T/r	Infratuzilma elementi	Ta’lim muhitidagi vazifasi	Direktor e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan jihatlar
1	Umumta’lim tashkiloti binosi va hududi	Xavfsiz, tartibli va qulay ta’lim muhitini ta’minlash	Kirish-chiqish tartibi, sanitariya holati, hududning obodonlashtirilishi, xavfsizlik va foydalanish qulayligi
2	Sinf xonalari va o‘quv kabinetlari	Dars mashg‘ulotlarini tashkil etish	Jihozlanganlik darajasi, yoritish, shamollatish, isitish, ta’lim vositalari va sanitariya talablari
3	Laboratoriyalar va amaliy mashg‘ulot xonalari	Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish	Jihozlarning sozligi, xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi, mas’ullar va foydalanish tartibi
4	Kutubxona	O‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishi va axborot resurslaridan foydalanishini ta’minlash	Kitob fondining yetarliligi, elektron resurslar, o‘qish uchun yaratilgan sharoitlar
5	Sport zali va ochiq sport maydonchalari	Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari hamda sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash	Jihozlarning sozligi, foydalanish xavfsizligi, sanitariya holati va saqlanishi
6	Foye, yo‘laklar va rekreatsiya zonalari	O‘quvchilarning xavfsiz harakatlanishi va dam olishi uchun qulay muhit yaratish	Harakatlanish qulayligi, axborot stendlari, tozalik, bezatish va xavfsizlik
7	Multimedia va kompyuter xonalari	Raqamli ta’lim xizmatlari va axborot texnologiyalaridan foydalanishni ta’minlash	Kompyuter va multimedia vositalarining texnik holati, internet sifati, axborot xavfsizligi va foydalanish tartibi

Qo‘llash bo‘yicha izoh

Maktab infratuzilmasini baholash faqat bino va jihozlarning holatini aniqlash bilan cheklanmasligi lozim. Har bir infratuzilma elementining ta’lim jarayonidagi funksiyasi, undan foydalanish samaradorligi, xavfsizlik talablari hamda o‘quvchilar va pedagoglar uchun yaratilgan qulayliklar kompleks baholanishi zarur. Baholash natijalari aniqlangan muammolarni bartaraf etish va infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

2.2. MODDIY-TEXNIK BAZANI JIHOZLASHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

“Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida sog‘lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur”

Sh.Mirziyoyev

Maktabning moddiy-texnik bazasini baholash va rivojlantirish amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar hamda me’yorlar asosida amalga oshiriladi. Bunday yondashuv direktorning mavjud sharoitlarni subyektiv kuzatish asosida emas, balki belgilangan mezonlar bilan taqqoslash orqali xolis baholashiga hamda asoslantirilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishiga xizmat qiladi.

Moddiy-texnik bazani baholashda quyidagi asosiy normativ hujjatlardan foydalaniladi.

Birinchi manba — “Maktabgacha, umumiy o‘rta va qo‘shimcha ta’lim tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlash talablari to‘g‘risidagi nizom” (3765-son, 2026-yil). U davlat ta’lim tashkilotlari uchun umumiy talablarni belgilaydi, nodavlat tashkilotlar uchun tavsiyaviy xarakterga ega.

Ikkinchi manba — “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun zarur bo‘ladigan jihozlar me’yorlari” (2935-son, 2017-yil). Unda jihoz nomi, o‘lchov birligi va son ko‘rsatkichlari jadval shaklida beriladi. Me’yorlar foydalanish joylari bo‘yicha bo‘limlarga ajratilgan: boshlang‘ich ta’lim xonalari (1–4-sinflar), 5–11-sinf xonalari, “Informatika” va “Chet tillari” xonalari, laboratoriya, kutubxona, sport zali.

Direktor moddiy-texnik bazani baholash va takomillashtirishda quyidagi ketma-ketlikka amal qilishi tavsiya etiladi:

1. Baholanadigan sinf xonasi yoki obyektni aniqlash.
2. Mazkur obyektga tegishli normativ talab va me’yorlarni o‘rganish.
3. Mavjud jihozlarni me’yoriy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash.
4. Aniqlangan kamchilik va ehtiyojlarni hujjatlashtirish.
5. Ehtiyojlarni ularni hal etish imkoniyatidan kelib chiqib ustuvorlashtirish.
6. Chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va mas’ullarni belgilash.

Aniqlangan ehtiyojlarni quyidagi toifalar bo‘yicha guruhlash maqsadga muvofiq:

maktabning ichki imkoniyatlari hisobidan qisqa muddatda bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan ehtiyojlar;

qo‘shimcha moliyaviy yoki moddiy resurslarni talab qiladigan ehtiyojlar;

yuqori turuvchi tashkilotlar yoki hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda hal etiladigan ehtiyojlar.

Amaliy tavsiya

Moddiy-texnik bazani baholashni har o‘quv yili boshlanishidan oldin hamda zaruratga ko‘ra o‘quv yili davomida muntazam o‘tkazish tavsiya etiladi. Baholash natijalari inventarizatsiya ma’lumotlari, ta’mirlash rejalari va maktabni rivojlantirish dasturi bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

5-jadval. Normativ hujjatlar asosida baholash yo‘nalishlari

T/r	Infratuzilma elementi	Direktor e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan jihatlar
1	Boshlang‘ich ta’lim xonalari (1–4-sinf)	Sinf doskasi, o‘quvchi va o‘qituvchi stoli, kitob javoni, ko‘rgazmali vositalarning mavjudligi va yaroqliligi
2	5–11-sinf xonalari	Doska, parta, o‘qituvchi stoli, yarim yumshoq stul, kitob javoni va boshqa jihozlar holati
3	«Informatika» va «Chet tillari» xonalari	Kompyuter stollari, o‘quvchi va o‘qituvchi uchun kompyuter texnikasi holati
4	Laboratoriya xonalari	Laboratoriya idishlari to‘plami, demonstratsion jihozlar, xavfsiz foydalanish
5	Kutubxona	Fonddan foydalanish, o‘qish muhiti, kutubxona mudiri vazifalari (amaldagi shtat jadvaliga muvofiq)
6	Sport zali va ochiq sport maydonchalari	Sport jihozlari, mashg‘ulotlar jadvali, jihozlar saqlanishi
7	Alohida ta’lim ehtiyojli o‘quvchilar uchun sharoitlar	Pandus, tutqich, harakatlanish qulayligi, maxsus yordam xonalari

Yuqoridagi yo‘nalishlar bo‘yicha aniqlangan natijalar amaldagi buxgalteriya hisobi, inventarizatsiya, ombor hujjatlari va budjet rejalashtirish jarayonlari bilan bog‘liq holda rasmiylashtiriladi. Quyidagi jadval moddiy-texnik holatni baholashda foydalaniladigan asosiy rasmiy hujjatlarni umumlashtiradi.

6-jadval. Moddiy-texnik holatni baholashda foydalaniladigan rasmiy va yordamchi hujjatlar

Yo‘nalish	Asosiy rasmiy hujjat yoki tartib	Direktor uchun amaliy vazifa
Mavjud jihozlar va moddiy qimmatliklar holati	Inventarizatsiya ro‘yxati va dalolatnomalari	Buxgalteriya va moddiy javobgar shaxslar ma’lumotlari asosida mavjud holatni tahlil qilish
Jihozlarning ombordan berilishi yoki tashkilot ichida joydan-joyga ko‘chirilishi	434-son shakldagi yuk xati (talabnoma), AV-2 shakli	Jihoz va materiallar harakati rasmiylashtirilganligini nazorat qilish
Materiallardan kundalik foydalanish	431-son zabor kartasi, 410-son tashkilot ehtiyoji uchun materiallar qaydnomasi	Materiallardan belgilangan tartibda foydalanilishini kuzatish
Yaroqsiz jihozlarni rasmiylashtirish	Inventarizatsiya komissiyasi dalolatnomasi, asosiy vositalarni hisobdan chiqarish hujjatlari	Yaroqsiz holat va sabablar komissiya tomonidan rasmiylashtirilishini ta’minlash
Qo‘shimcha jihoz yoki ta’mir ehtiyojini asoslash	Budjet so‘rovi, xarajatlar smetasi	Ehtiyojni normativ talab va ta’lim jarayoniga ta’siri asosida tayyorlash
Umumiy foydalanishdagi xona va jihozlar	Ichki foydalanish jadvali	Sport zali, kompyuter xonasi, laboratoriya yoki multimedia vositalaridan foydalanishni tartibga solish

Amaliy tavsiya

Ichki tahliliy ma’lumotnoma maktab rahbariyati uchun mavjud holatni umumlashtirish va ehtiyojlarni ustuvorlik darajasiga ko‘ra ajratishga yordam beradi. Bu rasmiy moliyaviy hujjat emas — ehtiyojlar bo‘yicha rasmiy takliflarni tayyorlashda yordamchi vosita.

2.3. RAQAMLI TA’LIM MUHITINI JORIY ETISH UCHUN ZARUR MODDIY-TEXNIK SHAROITLAR

Raqamli ta’lim muhitini samarali joriy etish maktabni faqat kompyuterlar va internet tarmog‘i bilan ta’minlash bilangina cheklanmaydi. U ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan texnik vositalar, tarmoq infratuzilmasi, maxsus jihozlangan o‘quv xonalari, axborot xavfsizligi talablari hamda ulardan foydalanishni tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi.

Raqamli infratuzilma tarkibiga sinf xonalari, “Informatika” va “Tabiiy fanlar” kabinetlari, multimedia vositalari bilan jihozlangan o‘quv xonalari, kutubxona, foye va yo‘laklar, maxsus yordam xonalari, Wi-Fi qamrovi, shuningdek maktab hududida raqamli ta’lim xizmatlaridan foydalanish imkonini beruvchi boshqa texnik vositalar kiradi.

Direktor raqamli infratuzilmani baholashda faqat jihozlarning mavjudligini emas, balki ularning joylashuvi, texnik sozligi, foydalanish darajasi, xavfsizlik talablariga muvofiqligi hamda ta’lim jarayoniga qo‘shayotgan amaliy hissasini kompleks baholashi lozim.

Birinchidan, “Maktabgacha, umumiy o‘rta va qo‘shimcha ta’lim tashkilotlarini moddiy-texnik jihozlash talablari to‘g‘risidagi nizom” (ro‘yxat raqami 3765, 2026-yil) maktab infratuzilmasiga qo‘yiladigan umumiy talablarni belgilaydi. Jumladan, foye va yo‘laklarni jihozlash, to‘siqsiz muhit yaratish, Wi-Fi qamrovini tashkil etish, zaryadlash stansiyalari, elektron nazorat vositalari hamda maxsus yordam xonalariga oid talablarni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchidan, “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun zarur bo‘ladigan jihozlar me’yorlari” (ro‘yxat raqami 2935, 2017-yil) fan kabinetlari va boshqa o‘quv xonalari uchun zarur kompyuter texnikasi, interaktiv (elektron) doskalar, multimedia vositalari, stabilizatorlar hamda boshqa texnik jihozlarning me’yoriy tarkibi va sonini belgilaydi.

7-jadval. Raqamli ta’lim muhiti uchun moddiy-texnik baza elementlari

Element	Foydalanish sohasi	Direktor e’tibor qaratadigan jihat
O‘quvchi uchun kompyuter texnikasi	Informatika, chet tillari, elektron ta’lim resurslari, amaliy dasturlar, testlar, mustaqil topshiriqlar	Ishlash holati, foydalanish imkoniyati, dars jarayonida real qo‘llanishi
O‘qituvchi-pedagog uchun kompyuter texnikasi	Darsga tayyorgarlik, taqdimot, test, elektron resurslar, o‘quv materiallari, hisobotlar	Texnik sozligi, joylashuvi, pedagog ehtiyojiga mosligi
Elektron doska	Dars jarayonida raqamli ta’lim resurslarini ochish, interfaol topshiriqlar, audiovizual kontent. PF-21 Farmonida 100% qamrov ko‘rsatkichi belgilangan	Mavjudligi bilan birga dars maqsadida muntazam ishlatilishi
Stabilizator va elektr himoya vositalari	Raqamli qurilmalarni elektr kuchlanishidagi o‘zgarishlardan himoya	Elektr ta’minoti, kabel va rozetkalar holatini muntazam kuzatish
Internet va lokal tarmoq	Elektron ta’lim resurslari, raqamli xizmatlar, elektron jurnal va kundalik	Kirish huquqlari, tarmoq barqarorligi, ta’limga mos foydalanish qoidalari
Wi-Fi hududlar va zaryadlovchi stansiyalar	Foye va kutish joylarida axborot olish muhiti	3765-son Nizomda foye hajmidan kelib chiqib tavsiya etiladi
Elektron nazorat moslamalari	Kirish-chiqish tartibi, xavfsizlik	3765-son Nizomda darvozalar va kirish nazorati uchun belgilangan
Vizuallashtirish vositalari (proyektor, ekran, televizor)	Taqdimot, videodars, ko‘rgazmali materiallar	Foydalanish jadvali, mas’ul shaxs, texnik sozlikni kuzatish
Printer, skaner, ko‘p funksiyali qurilma	O‘quv materiallari, hujjatlar, tarqatma materiallar	Mavjud imkoniyat va xarajatlarni oqilona tashkil etish
Maxsus yordam ko‘rsatish xonalaridagi raqamli vositalar	Alohida ta’lim ehtiyojli o‘quvchilar bilan korreksion ishlar	3765-son Nizomda interaktiv doska, proyektor, kompyuter va chop etish vositalari talab etiladi
Dasturiy vositalar va raqamli ta’lim kontenti	Elektron resurslar, multimedia resurslar, testlar. PF-21 da 1000 ta multimedia dasturi vazifasi belgilangan	Texnik vositalar bilan kontent muvofiqligi

Amaliy tavsiya

Raqamli vositalarni baholashda har bir vosita bo‘yicha uning normativ asosga mosligi, joylashuvi, texnik holati, foydalanish tartibi, mas’ullari, xavfsizligi va ta’lim jarayonidagi amaliy samarasi ko‘rib chiqiladi. Yagona savol — “Qanday qurilma mavjud?” emas, balki “Qurilma ta’lim jarayoniga qanday xizmat qilmoqda!”.

Raqamli infratuzilma bo‘yicha mavjud holatni baholashda quyidagi savollarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq:

1. Maktabdagi kompyuter, elektron doska, proyektor, printer, internet va boshqa raqamli vositalar amalda qaysi ta’lim jarayonlarida foydalanilmoqda?
2. Pedagog xodimlar mavjud raqamli vositalardan muntazam va maqsadli foydalanish ko‘nikmasiga egami?
3. Internet tarmog‘i, Wi-Fi hududlar, elektr ta’minoti va zaryadlash imkoniyatlari raqamli ta’lim xizmatlaridan foydalanish uchun yetarlimi?
4. Mavjud raqamli vositalardan foydalanish ta’lim sifati, davomat, o‘zlashtirish, mustaqil ta’lim va o‘quv jarayoni monitoringiga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?

1.

2.

3.

4.

2.4. JIHOZLAR VA TA’LIM VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH

Umumta’lim tashkilotida jihozlar va ta’lim vositalari o‘quv jarayonini tashkil etishning muhim moddiy resursi hisoblanadi. Ular dars mashg‘ulotlari, amaliy va laboratoriya ishlari, mustaqil ta’lim, sport-sog‘lomlashtirish faoliyati hamda raqamli ta’lim xizmatlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu sababli direktor jihozlarni boshqarishda ularning faqat mavjudligi yoki inventar hisobini emas, balki ulardan foydalanish samaradorligini ham muntazam baholab borishi lozim

Jihozlardan samarali foydalanishni tashkil etishda quyidagi uch bosqichli yondashuvni qo‘llash tavsiya etiladi:

1. **Mavjud holatni baholash** – jihozlarning normativ talablarga muvofiqligi, texnik holati, inventar hisobi va foydalanishga tayyorligi aniqlanadi.
2. **Foydalanishni tashkil etish** – jihozlardan kim, qachon va qanday maqsadda foydalanishi, ularni saqlash, olish va qaytarish tartibi hamda mas’ullar belgilanadi.
3. **Natijadorlikni baholash** – jihozlardan foydalanish muntazamligi, xavfsizlik talablariga rioya etilishi, ta’lim jarayoniga qo‘shayotgan hissasi va foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi.

8-jadval. Jihoz turlari bo‘yicha foydalanish tartibi va direktor nazorat qiladigan jihatlar

Jihoz turi	Foydalanish tartibida ko‘rsatiladigan jihatlar	Direktor nazorat qiladigan jihatlar
Interfaol (elektron) doska	Joylashgan xonasi, foydalanuvchi pedagoglar, foydalanish jadvali, texnik xizmat ko‘rsatish	Dars jarayonida muntazam va maqsadli foydalanilishi, texnik sozligi
Proyektor, ekran va audio vositalar	Saqlash joyi, olish va qaytarish tartibi, foydalanish grafigi	Jihozlarning saqlanishi, shikastlanishining oldini olish va samarali foydalanilishi
Kompyuter xonasi	Dars jadvali, qo‘shimcha mashg‘ulotlar, texnika xavfsizligi, mas’ul xodim	Kompyuterlardan maqsadli foydalanish, texnik holati va axborot xavfsizligi
Laboratoriya jihozlari	Mashg‘ulotga tayyorgarlik, foydalanish tartibi, xavfsizlik qoidalari	Tajribalarning xavfsiz o‘tkazilishi, jihozlarning sozligi va saqlanishi
Sport jihozlari	Mashg‘ulot jadvali, foydalanish va saqlash tartibi	O‘quvchilar xavfsizligi, jihozlarning yaroqliligi va butligi
Kutubxona resurslari	Kitoblarni berish va qabul qilish tartibi, elektron resurslardan foydalanish	Resurslarning saqlanishi, ulardan foydalanish faolligi va qulayligi
Printer, skaner va ko‘p funksiyali qurilmalar	Foydalanish joyi, mas’ul xodim, sarf materiallarini hisobga olish	Oqilona foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish va ortiqcha xarajatlarning oldini olish

Jihozlardan foydalanishni tashkil etishda moddiy javobgarlik hamda ulardan ta’lim jarayonida foydalanishni tashkil etish funksiyalarini o‘zaro farqlash zarur.

Moddiy javobgarlik — jihozlarni saqlash, inventar hisobini yuritish va butligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifalarni o‘z ichiga oladi hamda tegishli moddiy javobgar shaxs zimmasiga yuklatiladi.

Ta’lim jarayonida foydalanishni tashkil etish — jihozlardan dars mashg‘ulotlari va boshqa ta’lim faoliyatida samarali foydalanishni ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lib, tegishli pedagog xodim tomonidan amalga oshiriladi.

Amaliy tavsiya

Jihozlardan foydalanish samaradorligini yiliga kamida bir marta tahlil qilish, kam foydalanilayotgan yoki foydalanilmayotgan jihozlarni aniqlash hamda ularni ta’lim jarayoniga faol jalb etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Mazkur funksiyalar bir shaxs zimmasida bo‘lishi shart emas. Mas’ullar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, lavozim yo‘riqnomalari va maktab direktorining buyruqlari asosida belgilanadi.

Maktabda jihozlardan foydalanish tartibi sodda, tushunarli va amaliyotda qo‘llash uchun qulay bo‘lishi lozim. Unda, odatda, quyidagi masalalar aks ettiriladi:

1. jihozlardan foydalanish joylari va foydalanuvchilar doirasi;
2. umumiy foydalaniladigan jihozlardan foydalanish jadvali;
3. jihozlarni saqlash, olish va qaytarish tartibi;
4. texnika, laboratoriya, sport va yong‘in xavfsizligi talablari;
5. nosozlik yoki ta’mirlash zarurati yuzaga kelganda xabar berish tartibi;
6. mas’ul shaxslar va ularning vazifalari.

Eslatma

Umumiy foydalaniladigan barcha jihozlar bo‘yicha foydalanish joyi, mas’ul shaxs, saqlash tartibi, xavfsiz foydalanish qoidalari hamda nosozliklarni bartaraf etish mexanizmi maktabning ichki hujjatlarida belgilanishi va muntazam yangilanib borilishi lozim.

2.5. MAKTAB HUDUDI, FOYE VA BINO YO‘LAKLARINI ZAMONAVIY BEZATISH

Maktab hovlisi, kirish qismi, foye, bino yo‘laklari, zinalar va umumiy foydalanishdagi hududlar ham ta’lim muhitining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan o‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda badiiy-estetik didni rivojlantirish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini zamonaviy talablar asosida bezatish hamda yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida **“Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari hovlisi, foye va bino yo‘laklarini bezatishning namunaviy talablari bo‘yicha tavsiyalar”** ishlab chiqilgan.

Mazkur tavsiyalar maktab hududi va binosining tashqi ko‘rinishini bir xil qolipga solish uchun emas, balki maktab muhitini mazmunli, tartibli, ta’limiy va tarbiyaviy jihatdan foydali tashkil etish uchun metodik asos sifatida qo‘llanadi. Bunda har bir maktab o‘z binosining arxitektura xususiyati, hududi, mavjud moddiy imkoniyati, xavfsizlik talablari va o‘quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga oladi.

Maktab hududiga kirish qismi

Umumta’lim maktabi hududiga kirish qismi maktab haqida birinchi taassurot beradigan joy hisoblanadi. Shu sababli maktab darvozasi yoki bino kirish qismida ta’lim muassasasining nomi, raqami va asosiy identifikatsion belgilarini aniq ko‘rsatish tavsiya etiladi.

Maktab darvozasining ikki tomoniga muassasa peshtaxtasi o‘rnatiladi. Mazkur peshtaxta darvozaning chap tomonida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida davlat tilida, o‘ng tomonida esa ingliz tilida joylashtirilishi tavsiya etiladi. Ta’lim rus yoki qardosh tillarda olib boriladigan maktablarda peshtaxtadagi yozuvlar tegishli ta’lim tilida ham berilishi mumkin.

Kirish darvozasining peshtoqiga katta harflar bilan maktabning raqami yozib qo‘yilishi mumkin. Quyidagi rasmlarda namunalar keltirilgan.





Maktab hududini obodonlashtirish

Ta’lim muassasasining hududini obodonlashtirish ishlari reja va landshaft dizayni asosida muntazam ravishda olib borilishi maqsadga muvofiq. Maktabga kirish darvozasidan binogacha bo‘lgan yo‘laklar atrofida mahalliy iqlim sharoitidan kelib chiqib daraxtlar, gul va manzarali ko‘chatlarni joylashtirish mumkin.

Maktab binosining yon tomonlariga hudud xususiyatidan kelib chiqib mevali va manzarali daraxtlar, mavsumiy va ko‘p yillik gul ko‘chatlarini ekish mumkin. Binoning orqa tomonida ignabargli va mevali daraxtlarni joylashtirish tavsiya etiladi. Bu maktab hududining ekologik, estetik va tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Maktab binosiga kirish qismida yoki saflanishlar maydonchasining burchagida tadbirlarda foydalanish uchun bayroq ko‘tarish moslamasi — flagshtok o‘rnatiladi. Davlat bayramlari, rasmiy tadbirlar, ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar va maktab hayotidagi muhim tadbirlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i mazkur flagshtokka ilinadi.

Axborot-vizual muhitni tashkil etish

Maktab foyesi, yo‘laklari, fan xonalari va umumiy foydalanish joylarida joylashtiriladigan stendlar, ko‘rsatkichlar hamda ta’limga oid vizual materiallar maktab muhitini tartibli, tushunarli, estetik va mazmunli tashkil etishga xizmat qilishi lozim. Bunda davlat ramzlari, dars va to‘garaklar jadvali, ichki tartib va odob-axloq qoidalari, kasbga yo‘naltirish, milliy qadriyatlar, o‘quvchilar yutuqlari hamda fan xonalariga oid materiallar maktabning umumiy dizayn uslubiga mos, o‘qilishi qulay, mazmunan aniq va ortiqcha matn bilan to‘ldirilmagan shaklda joylashtiriladi.



Mazkur bezatish ishlari maktab binosining arxitektura xususiyati, foye va yo‘laklar hajmi, yoritish holati, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, sanitariya-gigiyena va xavfsizlik talablari hisobga olingan holda tashkil etiladi. Stend, banner, ko‘rsatkich va boshqa vizual elementlar haddan tashqari ko‘paytirib yuborilmasligi, evakuatsiya yo‘llari, harakatlanish qulayligi, elektr jihozlari va yong‘in xavfsizligi belgilariga xalaqit bermasligi kerak.


Foye va yo‘laklarda navigatsion ko‘rsatkichlardan foydalanish

Maktab foyesi va bino yo‘laklari faqat axborot stendlari joylashtiriladigan hudud emas, balki o‘quvchilar, pedagog xodimlar, ota-onalar va tashrif buyuruvchilar uchun maktab ichki makonida erkin va qulay harakatlanishni ta’minlaydigan muhim yo‘nalish hisoblanadi. Shu sababli foye, asosiy yo‘laklar, burilish joylari va zinapoyalar atrofida xonalarni topishni osonlashtiruvchi sodda va tushunarli navigatsion ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Yo‘laklarda namunaviy sinf xonalari, o‘quv kabinetlari, kutubxona, sport zali, tibbiyot xonasi, psixolog xonasi, ma’muriyat xonalari hamda laboratoriya xonalariga yo‘nalish beruvchi ko‘rsatkichlar joylashtirilishi mumkin. Bunday belgilar xona nomi, raqami, qisqa piktogramma va yo‘nalish strelkasi orqali berilganda maktab binosida tartib, qulaylik va tushunarlilikni oshiradi.

Navigatsion ko‘rsatkichlar yagona dizayn uslubida, o‘qilishi qulay shriftlarda, ortiqcha bezaksiz va maktabning umumiy rang yechimiga mos tarzda tayyorlanadi. Ularni joylashtirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ko‘rish qulayligi, yo‘lak kengligi, harakat xavfsizligi, evakuatsiya yo‘llari va yong‘in xavfsizligi talablari inobatga olinadi. Ko‘rsatkichlar harakatlanishga xalaqit bermasligi va ortiqcha vizual yuklama hosil qilmasligi lozim.

Foye va yo‘laklarda joylashtiriladigan matnlar katta, tushunarli va bir-biriga mos shriftlarda yozilishi lozim. Stendlardagi matnlar imloviy jihatdan to‘g‘ri, mazmunan aniq, yosh xususiyatlariga mos va ortiqcha matn bilan to‘ldirilmagan bo‘lishi kerak.





Maktab foyesining arxitektura jihatidan o‘ziga xosligidan kelib chiqib, devorlarga aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda foydalaniladigan formulalar, davriy jadval, geometrik shakllar va boshqa ta’limiy tasvirlarni did bilan joylashtirish mumkin.

Zinalardan ham qo‘shimcha ta’limiy manba sifatida foydalanish mumkin. Masalan, ko‘paytiruv jadvali, qisqa formulalar, motivatsion ta’limiy eslatmalar yoki fanlarga oid sodda belgilar o‘quvchiga qulay, xavfsizlik talablariga zid bo‘lmagan va estetik jihatdan uyg‘un tarzda joylashtiriladi.

Muhim

Ta’lim muassasasini stendlar, bannerlar, ko‘rgazmali vositalar yoki boshqa bezatish elementlari bilan jihozlash uchun o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ularning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslardan pul mablag‘larini yig‘ish qat’iyan taqiqlanadi. Harajatlar maktabning nobyudjet fondi, homiylik mablag‘lari yoki mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Maktab hududi, foye va yo‘laklarni bezatish ishlari ta’lim muhitining tashqi ko‘rinishini yaxshilash bilan birga, o‘quvchilar, pedagog xodimlar, ota-onalar va tashrif buyuruvchilar uchun qulay, tartibli, xavfsiz va tushunarli muhit yaratishga xizmat qilishi lozim. Bezatish elementlari, axborot stendlari, navigatsion belgilar va fan mazmuniga oid devoriy yechimlar umumiy uslubga ega bo‘lishi, ortiqcha vizual yuklama hosil qilmasligi va ta’lim jarayoniga amaliy foyda berishi muhim.

Maktab hududi va bino ichki qismlarini bezatish holatini tahlil qilishda quyidagi savollar ko‘rib chiqiladi:

1. Axborot stendlari, e’lonlar, davlat ramzlari va boshqa ko‘rgazmali materiallar mazmunan dolzarb, joylashuvi bo‘yicha qulay va tashqi ko‘rinishi jihatidan yagona uslubga egami?
2. Yo‘laklar, zinapoyalar va burilish joylarida xonalarni topish, harakat yo‘nalishini aniqlash va zarur joyga yetib borishni osonlashtiruvchi navigatsion belgilar mavjudmi?
3. Bezatish elementlari yong‘in xavfsizligi, evakuatsiya yo‘llari, elektr jihozlari, sanitariya-gigiyena talablari va harakatlanish qulayligiga xalaqit bermaydimi?
4. Maktabdagi banner, stend, yozuv, xona peshlavhasi va boshqa vizual elementlar ortiqcha ko‘payib ketmaganmi, ularning mazmuni muntazam yangilanib boriladimi?
5. Bezatish va axborot joylashtirish ishlari maktabning ichki tartibi, moliyaviy imkoniyatlari va mas’ullar taqsimoti asosida rejalashtirilganmi?

1. .....

2. .....

3. .....

4. .....

5.

2.6. “ZAMONAVIY MAKTAB” TALABLARI ASOSIDA ICHKI BAHOLASHNI AMALGA OSHIRISH

“Zamonaviy maktab” talablari asosida ichki baholash maktabning moddiy-texnik bazasi, infratuzilmasi, ta’lim muhiti va boshqaruv jarayonlarini kompleks tahlil qilishga xizmat qiladi. Bunda maktabning bino va hududi, sinf xonalari, laboratoriyalar, kutubxona, sport inshootlari, raqamli ta’lim vositalari, axborot muhiti, xavfsizlik, to‘siqsiz muhit hamda ichki boshqaruv mexanizmlari yagona tizim sifatida baholanadi.

Ichki baholashning asosiy maqsadi mavjud sharoitlarning amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash, muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda maktabni bosqichma-bosqich rivojlantirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur ma’lumotlarni shakllantirishdan iborat.

Normativ asos

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi PQ–4537-son qarori bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini “Zamonaviy maktab” talablari asosida tashkil etish hamda muvofiqlik sertifikatini berish tizimi joriy etilgan. Mazkur qarorga muvofiq 2020-yil 1-martdan boshlab davlat umumta’lim muassasalarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash “Zamonaviy maktab”larning namunaviy loyihalari hamda me’yorlari asosida amalga oshiriladi.

10-jadval. “Zamonaviy maktab” yondashuvi asosida ichki baholash yo‘nalishlari

Baholash yo‘nalishi	Ko‘rib chiqiladigan jihatlar	Boshqaruv xulosasi
Bino va hudud	Kirish-chiqish, obodonlashtirish, yoritish, sanitariya holati, xavfsizlik	Hududning xavfsiz, tartibli va qulay tashkil etilganligi
Foye, yo‘laklar va rekreatsiya zonalari	Davlat ramzlari, axborot stendlari, evakuatsiya yo‘nalishlari, ko‘rgazmali vositalar	Ta’limiy, tarbiyaviy va axborot muhiti talab darajasida tashkil etilganligi
Sinf xonalari va jihozlar	Me’yorlarga muvofiqlik, joylashuv, yaroqlilik, o‘quvchilar soniga moslik	Dars jarayonini sifatli tashkil etish uchun sharoitlarning yetarliligi
Raqamli ta’lim muhiti	Kompyuterlar, interfaol doskalar, internet, Wi-Fi, multimedia vositalari	Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish darajasi
Laboratoriyalar, kutubxona va sport inshootlari	Amaliy mashg‘ulot, mustaqil o‘qish, sport faoliyati uchun jihozlar va foydalanish tartibi	Amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim uchun yaratilgan sharoitlar
Inklyuziv va to‘siqsiz muhit	Pandus, tutqich, harakatlanish qulayligi, maxsus yordam ko‘rsatish xonalari, moslashtirilgan jihozlar	Alohida ta’lim ehtiyojli o‘quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar
Ichki tartib va mas’ullar	Mas’ullar taqsimoti, foydalanish tartiblari, nazorat va monitoring	Resurslardan foydalanish samaradorligi va ijro intizomi

Amaliy tavsiya

Ichki baholashni yiliga kamida bir marta o‘tkazish, zaruratga ko‘ra alohida yo‘nalishlar bo‘yicha choraklik monitoringni tashkil etish hamda natijalar asosida maktabning rivojlantirish rejasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish tavsiya etiladi.

Baholashda moddiy-texnik bazaga oid masalalar bo‘yicha mas’ullarni belgilashda amaldagi malaka tavsiflari va lavozim yo‘riqnomalari inobatga olinadi. Xususan, direktorning xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari (xo‘jalik mudiri) bino va inshootlarning texnik holati, moddiy-texnik bazani rivojlantirish, jihozlarning saqlanishi va ulardan foydalanishni tashkil etish bo‘yicha tegishli vazifalarni amalga oshiradi.

Qo‘llash bo‘yicha izoh

Ichki baholash “Zamonaviy maktab” muvofiqlik sertifikatini berish tartibini almashtirmaydi. Mazkur baholash maktabning mavjud holatini mustaqil tahlil qilish, muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va rasmiy baholash jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rish vositasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmoni bilan umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish, maktablarni zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan jihozlash, elektron doskalar bilan ta’minlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda multimedia ta’lim resurslarini keng joriy etish vazifalari belgilangan.

“Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir.”

Mahmudxo‘ja Behbudiy

“Zamonaviy maktab” talablari asosida ichki baholash maktabdagi mavjud holatni tashqi ko‘rinish bo‘yicha emas, balki ta’lim jarayoniga xizmat qilish darajasi bo‘yicha tahlil qilishga qaratiladi. Baholash natijalari maktab infratuzilmasi, moddiy-texnik baza, xavfsizlik, raqamli sharoitlar, sanitariya-gigiyena holati va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ichki baholash yakunida quyidagi savollar ko‘rib chiqiladi:

1. Maktabdagi mavjud sharoitlar “Zamonaviy maktab” talablariga qaysi jihatlari bilan mos keladi va qayerda qo‘shimcha choralar zarur?
2. Aniqlangan kamchiliklarning qaysilari maktabning ichki imkoniyatlari hisobidan bartaraf etilishi mumkin?
3. Qaysi masalalar yuqori turuvchi tashkilotlar, mahalliy hokimlik, homiylar yoki jamoatchilik bilan hamkorlikni talab qiladi?
4. Ichki baholash natijalari maktabning yillik ish rejasi, chora-tadbirlar rejasi yoki moddiy-texnik bazani rivojlantirish bo‘yicha takliflarda aks ettirilganmi?
5. Belgilangan chora-tadbirlar bo‘yicha mas’ullar, muddatlar va natijani baholash mezonlari aniq ko‘rsatilganmi?

1.

2.

3.

4.

5.

AMALIY KEYS

Maktab “Zamonaviy maktab” talablari asosida ichki baholash o‘tkazmoqda. O‘rganish davomida maktabda ayrim yo‘nalishlarda ijobiy holat borligi aniqlandi: asosiy o‘quv xonalari dars jarayoni uchun yaroqli, ayrim sinflarda elektron doska va multimedia vositalari mavjud, kompyuter xonasi foydalanilmoqda, foye va yo‘laklarda axborot stendlari joylashtirilgan.

Shu bilan birga, baholash natijalari bir nechta masalani ko‘rsatdi: elektron doskalardan barcha fanlarda bir xil darajada foydalanilmayapti, kompyuter xonasidagi ayrim texnikalar yangilanishga muhtoj, internet sifati ayrim xonalarda barqaror emas, sanitariya-gigiyena sharoitlari va umumiy foydalanish joylarida qulaylik darajasi muntazam nazoratni talab qiladi. Jihozlar mavjud bo‘lsa-da, ularning ta’lim jarayoniga real ta’siri bo‘yicha ichki tahlil yetarli yuritilmagan.

Mazkur vaziyatda direktor ichki baholash natijalarini oddiy kamchiliklar ro‘yxati sifatida emas, balki ta’lim muhiti sifatini yaxshilashga qaratilgan boshqaruv qaroriga aylantirishi lozim.

Keys bo‘yicha topshiriqlar

1. Aniqlangan masalalarni uch guruhga ajrating: tezkor hal etiladigan, reja asosida hal etiladigan, qo‘shimcha resurs talab qiladigan masalalar.
2. Qaysi muammolar ta’lim sifati, xavfsizlik va raqamli ta’lim imkoniyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishini belgilang.
3. Maktabning ichki imkoniyatlari bilan bajariladigan kamida uchta chora-tadbirni aniqlang.
4. Yuqori turuvchi tashkilot yoki mahalliy hamkorlar ishtirokini talab qiladigan masalalar bo‘yicha asoslangan taklif tayyorlang.
5. Ichki baholash natijalari asosida mas’ul ijrochi, muddat va kutilayotgan natija ko‘rsatilgan qisqa chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqing.

1.

2.

3.

4.

5.

6.